O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:911.3:911.37

Aziza A. DAVLATOVA
Katta o‘qituvchi, Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy,O‘zbekiston
E-mail: akmalovna116@gmail.com, ORCID:0009-0001-6924-1422

PhD A.G.Nuriddinovna taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALARI NUTQIDA MILLIY-MADANIY STEREOTIPLARNING AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalari nutqida milliy-madaniy hamda gender stereotiplarining aks etishi xususiyatlari lingvokulturologik va sotsiopsixolingvistik jihatdan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi nutq rivojlanishining ilk bosqichlarida ya’ni 3–7 yoshlarda ijtimoiy madaniy qoliplarning lisoniy realizatsiyasini aniqlash va farqli jihatlarini ko‘rsatishdan iborat. Maqolada qiyosiy-tipologik, kontekstual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlillar natijasida o‘zbek bolalari nutqida jamoaviylik, yosh kategoriyasi va uy-ro‘zg‘or gender stereotiplari dominoonlik qilishi, ingliz bolalari nutqida esa individualizm, daxlsizlik, madaniy etiket qoliplari shuningdek, muloqot strategiyasiga asoslangan raqobat va hamkorlik jihatlari gender hamda lingvistik stereotiplar ustunlik qilishi isbotlangan. Tadqiqot xulosalari bolalar psixolingvistikasi, qiyosiy tilshunoslik va bilingvizm metodikasini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Stereotip, madaniy qolip, nutqiy ibora, rolli o‘yin, gender stereotipi, madaniy muhit, madaniy etiket, muloqot, jinsga oid stereotip kategoriyasi.

THE MANIFESTATION OF NATIONAL-CULTURAL STEREOTYPES IN THE SPEECH OF ENGLISH AND UZBEK CHILDREN

Annotation

This article presents a comparative analysis of the manifestations of national-cultural and gender stereotypes in the speech of English and Uzbek children from linguocultural and sociopsycholinguistic perspectives. The aim of the study is to identify the linguistic realization of sociocultural patterns at the early stages of speech development, specifically between the ages of 3 and 7, and to highlight the differences between the two linguistic and cultural groups. The study employs comparative-typological, contextual, and componential analysis methods. The findings reveal that Uzbek children’s speech is predominantly characterized by collectivism, age-related social categories, and domestic gender stereotypes. In contrast, English children’s speech demonstrates a stronger emphasis on individualism, personal boundaries, cultural etiquette patterns, and gender-related and linguistic stereotypes associated with communication strategies based on competition and cooperation. The findings of the study are of practical significance for the advancement of child psycholinguistics, comparative linguistics, and bilingualism teaching methodology.

Keywords: stereotype, cultural pattern, speech expression, role-play, gender stereotype, cultural environment, cultural etiquette, communication, gender-related stereotype category.

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В РЕЧИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ДЕТЕЙ

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ особенностей проявления национально-культурных и гендерных стереотипов в речи английских и узбекских детей с лингвокультурологической и социопсихолингвистической точек зрения. Цель исследования заключается в выявлении языковой реализации социокультурных моделей на ранних этапах речевого развития, а именно в возрасте от 3 до 7 лет, а также в определении различий между двумя лингвокультурными группами. В исследовании использованы сравнительно-типологический, контекстуальный и компонентный методы анализа. Результаты анализа показывают, что в речи узбекских детей преобладают коллективизм, возрастные социальные категории и гендерные стереотипы, связанные с домашним бытом. В речи английских детей, напротив, более выражены индивидуализм, личные границы, нормы культурного этикета, а также гендерные и языковые стереотипы, связанные с коммуникативными стратегиями конкуренции и сотрудничества. Выводы исследования имеют практическое значение для развития детской психолингвистики, сопоставительного языкознания и методики обучения билингвизму.

Ключевые слова: стереотип, культурная модель, речевое выражение, ролевая игра, гендерный стереотип, культурная среда, культурный этикет, коммуникация, гендерно обусловленная стереотипная категория.

Kirish. Har bir xalq elat borki ularning kundalik hayotiga oid qarashlari, tasavvvurlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu o‘ziga xoslik stereotip atamasi bilan bugungi kunda yuritiladi. Stereotip bu muayyan bir guruh, millat, jins yoki ijtimoiy qatlam vakillari haqida shakllangan, soddalashtirilgan, barqaror, odatiy va ko‘pincha subyektiv tasavvur yoki tasavvurlar jamlanmasidir. Stereotip tushunchasi tarixan saqlanib qolgan jamiyatdagi fikrlar, an’anaviy qabul qilingan tasavvurlarga nisbatan ishlatiladi. Bunda xalqning o‘ziga xosligi, turmush tarzi, yashash holati milliyligi, dunyo qarash va qadriyatlari jamlanadi. Bola rivojlanishida ijtimoiy muhit, madaniy stereotiplar uning tarbiya topib ulg‘ayayotgan jarayonining ajralmas qismini tashkil etadi. Bu qarashlar bolalarga kichikligidanoq muloqot jarayonida o‘rgatiladi va tabiiy ravishda bola o‘zlashtira boshlaydi.

Stereotip atamasi fransuz tilidan, séréstue sifatdoshidan olingan bo‘lib yunoncha sérés (stereos)[1] “qattiq” va tōpos (pozish- imlo) so‘zlaridan olingan. Bir yoki bir nechta g‘oyalar, nazariyalarga nisbatan mustahkam jamoaviy fikr ma’nosini anglatadi. Bu fikrlar odatiy hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan, odatiy hayot tarzining deyarli asosiy qismini egallagan madaniy qoliplar deya ham atash mumkin, insonlar ushbu fikr va g‘oyalarga tayanib yashaydi. Masalan: o‘zbek oilalarida bolalarga qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salomlashish hurmat stereotipi yoshlikdanoq o‘rgatiladi, inglizlarda kichikligidanoq bolaning o‘z mustaqil hududi va chegarasi borligi o‘rgatiladi. Ko‘rinib turibdiki, falsafa, psixologiya, lingvistika va sotsiolingvistika sohalarini bu termin bir nuqtada birlashtiradi.

Metodlar. Ushbu tadqiqot nazariy-tahliliy ahamiyatga ega bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek bolalari nutqida milliy-madaniy stereotiplarning aks etish xususiyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-tipologik, lingvokulturologik, kontekstual, komponent, sotsiopragmatik va diskursiv tahlil metodlaridan, shuningdek, kuzatish metodidan foydalaniladi. Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi ingliz va o‘zbek bolalari nutqida milliy-madaniy stereotiplarning lisoniy, semantik, pragmatik va ijtimoiy xususiyatlarini kompleks o‘rganish va tadqiq etishda, shuningdek, ikki xalq bolalarining nutqiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan o‘xshashlik va farqlarni ilmiy asosda tahliliy yoritish imkonini yaratadi.

M.A.Qurbonova o‘zbek bolalari nutqini shevaga xosligini bevosita o‘z kuzatuvlar va tajribalari asosida o‘rgangan. U bolalarning narsa-hodisalarni nomlash (nominatsiyalash jarayoni), kattalardan eshitgan ijtimoiy rollarni nutqda qanday takrorlashi, o‘zbekona oilaviy muhitning nutqiy stereotiplarga ta’sirini tahlil qilgan olima hisoblanadi. “O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasida u o‘z xulosalarini keltirib o‘tgan[2]. Sh. Iskandarova esa o‘zining “Bolalar nutqining rivojlanishi” (psixolingvistik va lingvokulturologik jihatlar)[3] nomli monografiyasida bolalar nutqi rivojlanish jarayonida lingvomadaniy jihatdan bolalar muloqotiga xos stereotipik jihatlarini qayd etgan va tadqiq qilgan. Tadqiqotchi nutq bilan uzviy holda stereotipik odatiy qarashlar bolada shakllanib borishida uning ulg‘ayayotgan muhitini asosiy o‘rinda ekanligini ta’kidlaydi. Sh. Safarov tomonidan yaratilgan “Kognitiv tilshunoslik” darsligida ham til va nutq rivojlanishida ijtimoiy stereotiplarning ahamiyatisiz tilning rivojlanishi hamda nutqda aks etishi mumkin emasligi aytib o‘tilgan[4]. Ushbu manbalar o‘zbek ontolingvistikasida dastlabgi bolalar nutqiga oid manbalar deb aytishimiz mumkin. Ammo bu sohada yanada keng va chuqurroq tadqiqotlar hali mavjud emas, bu ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilshunos olimlaridan Clark Eve V. “First language acquisition” (Tilni o‘zlashtirish)[5] nomli mashhur kitobida bolalar nutqidagi leksik kategoriyalar va ularning ijtimoiy stereotipik jihatlarini bolalarning dastlabgi so‘zlari va dastlabgi muloqotda foydalanadigan iboralari yordamida izohlaydi. Masalan, ingliz bolalari o‘yin jarayonida “shifokor”, “uchuvchi” kasbiy rollarini o‘ynaganda ko‘proq buyruq maylidagi, qat’iy va jiddiy ohangdagi so‘zlardan "Do it", "Stop", "I command" foydalanishadi va buni yuqoridagi kasblarga xos holda "o‘g‘il bolaga xos nutq" deb qabul qilishadi. “Enaga”, “o‘qituvchi” rollarida esa bolalar ko‘proq yumshoq, iltimos va erkalash nutqiy shakllarini "please", "sweetie", "let's do together" ishlatishadi. Bu bolaning miyasida ijtimoiy rollar va til xususiyatlari allaqachon stereotipik qoliplarga tushib bo‘lganini ko‘rsatadi. Michael Byram tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ingliz madaniyatida insonning shaxsiy hududi (privacy) va his-tuyg‘ularini ochiq ko‘rsatish eng muhim ijtimoiy stereotiplardan biri hisoblanadi.

Natijalar. Ingliz bolalari 3-4 yoshidanoq kattalarning muloqot tizimidagi ushbu stereotipik qoliplarni nutqlariga ko‘chiradi[6]. Bolalar o‘z istaklarini ilk yoshlaridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish o‘rniga, endilikda modallikni ifodalovchi qoliplar orqali aytishga o‘rganishi aniqlandi. Masalan: "I want juice" – Men sharbat xohlayman o‘rniga, "Could I possibly have some juice, please?" - Iltimos, bir oz sharbat bera olasizmi? Ko‘rinishidagi gaplardan foydalanadi. Agar bola bu qoliplarni ishlatmasa, ingliz jamiyatida u “tarbiyasiz” odobsiz stereotipi ekanligi bolaga tabiiy muloqot jarayonida tushuntiriladi. Shuningdek, ingliz bolalari suhbatni boshlash uchun ob-havo yoki tabiat haqida gapirishni juda erta o‘zlashtiradilar. Sababi bu mavzular ingliz madaniyatiga xos xususiyatlar hisoblanadi. Sally Hunt ingliz tilidagi bolalar adabiyotini korpus lingvistikasi va tanqidiy diskurs tahlili asosida o‘rgangan zamonaviy tadqiqotchilardan biridir[7]. Muallif ingliz tilidagi mashhur bolalar kitoblari turkumlarida gender va identifikatsiya qanday ifodalanishini o‘rganadi. Tadqiqotda qahramonlarning his-tuyg‘ulari, nutqi, harakatlari va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq til birliklari tahlil qilingan. Korpus lingvistikasi va tanqidiy diskurs tahlilining birgalikda qo‘llanishi takrorlanuvchi stereotipik tasvirlarni aniqlash imkonini beradi. Rowland, Pine, Lieven va Theakston ingliz bolalarining so‘roq gaplarni o‘zlashtirishi hamda kattalar nutqining bu jarayondagi rolini o‘rgangan olimlar hisoblanadi[8]. Tadqiqot bolalar tilidagi birliklarni ularning grammatik shakli, ma’nosi va muloqot vaziyati bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Markur maqolada ingliz va o‘zbek bolalari nutqida milliy-madaniy stereotiplarning namoyon bo‘lish xususiyatlari, ularning lisoniy ifodalanish shakllari hamda ikki lingvomadaniy muhitga xos o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

Birinchidan, milliy-madaniy stereotiplarning lisoniy ifodalanishi aniqlanadi. Ingliz va o‘zbek bolalari nutqida oila, do‘stlik, kattalarga hurmat, jamoaviylik va mustaqillik kabi tushunchalar qanday so‘zlar, iboralar va nutqiy birliklar orqali ifodalanishi tahlil qilindi.

Ikkinchidan, ikki xalq bolalari nutqidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanadi. O‘zbek va ingliz bolalarining kundalik muloqotida milliy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va madaniy tasavvurlarni ifodalash usullari qiyoslandi.

Uchinchidan, oila va ijtimoiy munosabatlarga oid stereotiplar o‘rganiladi. Bolalar nutqida ota-ona, bobo-buvi, aka-uka, opa-singil va tengdoshlarga munosabat qanday ifodalanishi, shuningdek, yoshga bog‘liq ijtimoiy rollarning nutqda aks etishi tahlil qilindi.

To‘rtinchidan, gender stereotiplarining namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Bolalarning o‘g‘il va qizlarga xos deb hisoblanadigan mashg‘ulotlar, xulq-atvor, o‘yinchoqlar va ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari nutqiy misollar asosida o‘rganiladi. Bunda stereotiplar barcha bolalarga birdek xos deb qaralmaydi, balki muayyan nutqiy materialda kuzatiladigan tendensiyalar sifatida baholandi.

Beshinchidan, madaniy etiket va nutqiy xulq-atvor xususiyatlari aniqlanadi. Salomlashish, murojaat qilish, iltimos bildirish, minnatdorchilik aytish, uzr so‘rash va kattalar bilan muloqot qilishda qo‘llanadigan lisoniy vositalar tahlil qilindi.

Oltinchidan, milliy-madaniy stereotiplarning shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni o‘rganiladi. Oilaviy tarbiya, tengdoshlar bilan muloqot, ertaklar, bolalar adabiyoti va rolli o‘yinlar orqali bolalarning madaniy tasavvurlari qanday namoyon bo‘lishi tekshirildi.

Yettinchidan, stereotiplarning nutqiy va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi. Bolalarning o‘z fikrini ifodalash, o‘zaro kelishish, raqobatlashish, hamkorlik qilish va ijtimoiy vaziyatlarga munosabat bildirish jarayonida milliy-madaniy qarashlardan qanday foydalanishi tahlil qilindi.

Muhokama. O‘zbek bolalari nutqida milliy-madaniy stereotiplarning aks etishi asosan jamoaviy ahillik, yosh kategoriyasi ya’ni kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik va

an’anaviy gender rollari atrofida shakllanadi va singib nutqda o‘z aksini topadi[9]. O‘zbek bolalari 3 yoshdan bog‘chadagi rolli o‘yinlar orqali ushbu stereotiplarni nutqida faol qo‘llay boshlaydilar. Shunga ko‘ra ingliz va o‘zbek bolalari nutqida uchraydigan nutqiy madaniy stereotiplarni tahlil qilamiz:

1. Hurmat stereotipi (Murojaat shakllari misolida) - O‘zbek madaniyatida yoshi katta, keksalarni hurmat qilish va ularni ulug‘lash bosh ijtimoiy-madaniy qolip hisoblanadi. Bola tili chiqishi bilanoq, madaniy muhit asosida bolaga begona insonlarni ham oila a’zosi sifatida qabul qilish stereotipini singdiriladi. Ingliz bolasi ko‘chada notanish odamga shunchaki “Sir yoki Mister” yoki uning ismi bilan “John, Ann” sifatida murojaat qilishi oddiy hol bo‘lsa, o‘zbek bolasi muloqotga kirishayotgan shaxsning yoshiga qarab avtomatik ravishda “amakijon”, “xolajon”, “bobojon yoki buva”, “akajon”, “opajon” stereotipik nutqiy murojaat qoliplarini ishlatadi. Bog‘chada o‘zaro o‘yin o‘ynayotgan 5 yoshli o‘zbek bolasi “boshliq” yoki “shifokor” rolini ijro etayotganda, o‘zidan yoshi katta bog‘cha opasi yoki begona kattalar o‘yin jarayoniga kirib bolalar bilan o‘ynaganda ham bola nutqidagi buyruq ohangi birdan pasayadi va muloqotda avtomatik ravishda “Siz” deya yoki “siz”lash stereotipiga almashadi misol: “Keling, bog‘cha opa, o‘tiring”. Bu misol orqali nutqiy yosh kategoriyasi bolaning ongiga juda erta shakllanishini isboti desak adashmaymiz..

2. Mehmondo‘stlik - O‘zbek xalqining eng keng tarqalgan va mashhur stereotiplaridan biri mehmondo‘stlikdir. Bu madaniy qolip bolalarning rolli o‘yinlarida juda ko‘zga tashlanadi, masalan, “mehmon -mehmon” o‘yinida bolalar o‘zaro muloqotlarida kattalardan o‘rgangan va kuzatgan milliy an’anaviy iboralardan foydalanadilar. Bunda bola qo‘g‘irchoqlar yoki tengdoshlari bilan o‘ynaganda, uylariga mehmon kelsa, o‘zlarini kattalardek tutib, ulardan eshitgan muloqot muhitiga oid tayyor nutqiy iboralarni takrorlaydi: “Keling, mehmonga o‘ting”, “Oling, choydan”, “Choy ichasizmi?”, “Hozir ovqat suzaman”, “Iye, nega turibsiz, o‘tiring”, “Yuqoriga chiqing” kabi jumlalar o‘zbek bolasi nutqida 4-6 yoshdanoq shakllanib bo‘ladi. Ingliz bolalari o‘yinida esa ko‘proq shaxsiy hudud ustunlik qiladi. Fikrimizga misol sifatida ularning o‘yinida mehmon kelishi emas, balki "This is my room/house" - Bu mening xonam/uyim deb o‘z chegarasini belgilash yoki choy ichish o‘yinida - tea party mehmonga alohida e’tibor qaratishdan ko‘ra, ijtimoiy va shaxsiy etiket qoidalariga - "Thank you", "Pass me the sugar" rioya qilish asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningde, ingliz bolalari bir-birlari yoki ota-onasi bilan o‘yin o‘ynaganda muloqotda “It’s my turn” - Mening navbatim, “This is mine” - Bu meniki, “Leave me alone” - Meni yolg‘iz qoldiring yoki “It’s private” - Bu maxfiy degan iboralarni nutqida tez-tez qo‘llaydi. Ushbu misollar ingliz bolalarining o‘zbek bolalariga nisbatan madaniy stereotipik alohidaliligini ko‘rsatadi.

3. Gender stereotiplari. O‘zbekona oilaviy muhitda erkak va ayolning ijtimoiy vazifalari haqidagi qat’iy stereotiplar bolalar nutqida juda erta oilaviy turmush tarzi davomida tabiiy jarayonda shakllanadi. O‘g‘il bolalar o‘zaro gaplashganda yoki rolli o‘yinlarda ko‘proq “Men o‘g‘il bolaman”, “O‘g‘il bola yig‘lamaydi”, “Buni men qilaman” Kuchliman, kabi oilani ta’minlovchi va himoya qiluvchi qahramon stereotipiga xos so‘zlarni ko‘p ishlatishadi[10]. Shu jihatdan ingliz bolalari bilan umumiylikni hosil qilsada sharqona madaniyat va o‘g‘il bola oilaning yetakchisi, otaning suyanchi sifatida g‘arb madaniy stereotiplaridan farqlanadi.

Ingliz o‘g‘il bolalari 4-5 yoshidanoq o‘z nutqida kim kuchliroq yoki ustunroq ekanini ko‘rsatuvchi stereotipik iboralarni qo‘llay boshlaydi. Masalan: “My car is faster than yours”[11] - Mening mashinam senikidan tezroq, “I won, you lost” - Men yutdim, sen yutqazding kabilar misol bo‘la oladi. Bunda bolalarning o‘zaro raqobatlashishi o‘g‘il bolaga xos o‘yinqaroq va kuch sinashishga harakat qilishini kuzatishimiz mumkin.

Qizaloqlar o‘yin jarayonida hatto qo‘g‘irchoqlariga gapirayotgan holatda ham kattalardan eshitgan uy yumushlariga doir nutqiy qoliplarni faol qo‘llashadi: “Voy, uyat bo‘ladi”, “Hozir uyni supurishim kerak”, “Dadam kelguncha ovqat tayyorlaylik” kabi jumlalar o‘zbek qizining ongida ayol kishining jamiyatdagi an’anaviy stereotipik rolini, uning vazifa va burchi qiz bola hamda ayol kishilarga taaluqli bo‘lgan odatiy mas’uliyatlarini nutq orqali namoyon qiladi. Inglizlarda esa asosan gender xususiyati qizchalarning hissiyotga boy nutqida “oh, how it is great!”, “good”, o‘yin jarayonida o‘rtog‘iga buyruq bermasdan yumshoq ohangda murojaat qilishida ham ko‘zga tashlanadi “Shall we play together?”[9]. Gender jihatdan muloqotda qiz bolalar o‘g‘il bolalarga qaraganda muloyim va diplomatik aloqa o‘rnatishini D. Tannen 4-6 yoshli bolalarning o‘yin jarayonini video kuzatuvda yozib olib o‘g‘il bolalarda raqobat hamda qiz bolalarda kelishuvchan munosabat bo‘lishini tadqiqotida isbotlab bergan.

4. Madaniy etiket stereotiplari. O‘zbek bolalari nutqiy etiketida stereotiplar hayotiy qolip sifatida ishlatiladi. Masalan: 3-4 yoshli o‘zbek bolasi ovqatlanib bo‘lgach, hali so‘zlarni to‘liq talaffuz qila olmasada, qo‘lini ochib duo qilgandek harakat qilishi yoki “Omin, rahmat” deyishi shuningdek, biror yaxshi narsani ko‘rganda kattalarga taqlid qilib “Xudoga shukur” deyishi mumkin, bu milliy-madaniy stereotipik milliy nutqning eng yorqin namunasidir. Ingliz bolasi esa xuddi shu vaziyatda faqatgina “Thank you, mum, that is delicious” - Rahmat, oyi, juda shirin ekan. – deyish bilan cheklanadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek bolalari nutqida milliy-madaniy va gender stereotiplarining aks etishi shunchaki bolalarning o‘yin jarayonidagi tasodifiy gaplari emas, balki ularning o‘z jamiyati va madaniy kodlarini chuqur o‘zlashtirganidan dalolat beruvchi mukammal psixolingvistik jarayondir. Va ushbu jarayon bolalar nutqi rivojlanishida madaniy stereotiplarni tabiiy ravishda linguistik va madaniyat birlashgan kombinatsion holda shakllanib borishini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Henry George Liddell, Robert Scott, A Greek-English Lexicon, Perseus Digital Library.https://www.perseus.tufts.edu/hopper/text?doc=Perseus%3Atext%3A1999.04.0057%3Aentry%3Dtu%2Fpos
2. Qurbonova M.A. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent: O‘zR FA Til va adabiyot instituti, 2018. – 284 b.
3. Iskandarova Sh. Bolalar nutqining rivojlanishi (psixolingvistik va lingvokulturologik jihatlar). – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2012. – 165 b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b. (Yoki "Psixolingvistika" darsligi, 2011, 280-b).
5. Clark, Eve V. First language acquisition. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 546 p.
6. Byram, Michael. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – Clevedon: Multilingual matters, 1997. – 124 p.
7. Hunt, S. (2024). Linguistic Representations of Gender in Children's Literature: Feeling, Speaking, Doing. Palgrave Macmillan. – P. – 235 -237.
8. Rowland C. F., Pine J. M., Lieven E. V., Theakston A. L. Determinants of acquisition order in Wh-questions: Re-evaluating the role of caregiver speech // Journal of Child Language. — 2003. — Vol. 30, No. 3. — P. 609–635. DOI: 10.1017/S0305000903005714
9. Tannen, Deborah. Gender and discourse. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – pp. 53–67.
10. Davlatova A.A. Gender metaphor in the linguacultural aspect (in the example of Uzbek and English children's speech) // Journal of academic research and trends in educational sciences. – 2024. – № 2. – Pp. 160–163.
11. Clark, Eve V. First language acquisition. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 546 p.